

**URUSHDAN KEYIN O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINI TINCH
QURULISHGA O'TISHDAGI QIYINCHILIKLAR (1945-1953 Y.Y.)****Tojiboyev Firuzbek Ergashaliyevich****AnDU.Tel.: +998938670212****e-mail: tojiboyevfiruzbek1988.2024@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15273250>**

Ikkinchi jahon urushidan keyingi ilk yillarda O'zbekiston SSR uchun murakkab va ziddiyatli bosqichi boshlandi. Urush oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz respublikaning barcha sohalarida ayniqsa qishloq xo'jaligi doirasida o'z aksini topdi. Urushning mashaqqatlari va azoblaridan totib ko'rmagan bironta O'zbek oilasini topish mumkin emas. Urushning geografik ta'siri ostida bo'lmagan respublikalarda ham g'alabagacha bo'lgan juda og'ir, mashaqqatli yo'l ittifoqning barcha sohalariga katta zarar etkazdi. Shuning uchun 1945-1953-yillar qishloq xo'jaligini qayta tiklash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va tinch hayotga qaytish harakatlari bilan bosib o'tildi. Biroq urush keltirgan zarar bu ishlarni amalga oshirishda urushdan keyingi juda og'ir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan birga kechishi vaziyatni yanada og'irlashtirdi.

**ТРУДНОСТИ ПЕРЕХОДА СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА УЗБЕКИСТАНА К
МИРНОМУ СТРОИТЕЛЬСТВУ ПОСЛЕ ВОЙНЫ (1945–1953 ГГ.)**

В первые годы после Второй мировой войны для Узбекской ССР начался сложный и противоречивый этап. Социально-экономический кризис, вызванный войной, отразился на всех сферах республики, особенно в сельском хозяйстве. Не было ни одной узбекской семьи, которая бы не испытала на себе тяготы и страдания войны. Даже в тех республиках, которые не находились под прямым географическим влиянием войны, путь к Победе был чрезвычайно трудным и изнурительным, что нанесло серьёзный урон всем сферам жизни Союза. Поэтому 1945–1953 годы прошли под знаком восстановления сельского хозяйства, повышения эффективности производства и возвращения к мирной жизни. Однако ущерб, нанесённый войной, в сочетании с тяжёлой послевоенной социально-экономической ситуацией, ещё больше осложнял реализацию этих задач.

**DIFFICULTIES IN THE TRANSITION OF UZBEKISTAN'S AGRICULTURE TO
PEACEFUL DEVELOPMENT AFTER THE WAR (1945–1953)**

In the early years following World War II, the Uzbek SSR entered a complex and contradictory period. The socio-economic crisis caused by the war affected all sectors of the republic, especially agriculture. There was not a single Uzbek family that did not experience the hardships and suffering brought by the war. Even in those republics that were not directly affected geographically by the war, the road to Victory was extremely difficult and exhausting, inflicting serious damage on all areas of life in the Soviet Union. Therefore, the years 1945–1953 were marked by efforts to restore agriculture, increase production efficiency, and return to peaceful life. However, the damage caused by the war, combined with the severe post-war socio-economic conditions, made the implementation of these tasks even more difficult.

Urush yillarida yuz minglab O'zbekistonliklar frontlarga yuborildi va ularning katta qismi halok bo'ldi. Bu esa respublikada urushdan keyingi ilk yillarda mehnat resurslari taqchilligini yanada kuchayishiga olib keldi. Urushdan qaytganlarning ko'pchiligi nogiron bo'lib qoldi yoki urush yillarida mehnat salohiyatini yo'qotganligi ham bu taqchilikni yanada kuchaytirishga xizmat qildi. Markazning esa ustma-ust berilayotgan topshiriqlar tufayli Respublikada vaziyat yanada yomonlashib qoldi. Markaz tomondan O'zbekistonga baynalminalchilik tamoyiliga ko'ra respublikaga yuklatilgan navbatdagi vazifalari ham ijtimoiy-iqtisodiy xolatni og'ir xolga olib keldi. Xususan, Markaz topshirig'i asosida urushdan keyin ittifoqning urushdan zarar ko'rgan g'arbiy hududlariga ko'plab yordamlar yuborildi. O'zbekiston aloqachilari Dnepropetrovsk viloyatiga 300 mutaxassis, Toshkent temiryo'lchilari g'arbdagi temiryo'llarda ishlash uchun 230 kishi yubordilar. O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston respublikalari Rossiyaning sharqiy viloyatlari, Chuvashiston, Tatariston va Boshqirdiston avtonom respublikalari, Ukrainaga 5000 ta traktor, 300 ta avtomashina, 500 ta plug va ko'p miqdorda boshqa qishloq xo'jalik mashinalari yetkazib berdilar. Donbass shaxtalarini qayta tiklashga O'zbekiston nasoslar, kompressorlar, ko'targich kranlar, elektr kabellari va boshqa uskunalar yubordi. Bunday topshiriqlarning ijrosi yana mehnatkash o'zbek aholisining zimmasiga yuklatilgan edi.

Urush sabablari tufayli mamlakatda deyarli barcha ishlab chiqaruvchi kuchlar va sanoat ham harbiylashgan edi. 1945-1950-yillarda texnika jiholar yetishmasligi tufayli ko'plab ishlar insonlar qo'l mehnatiga asoslanib qolgan. Xususan paxta terish ishlari ham, albatta keying yillarda ham Respublikada paxta terish ishlari bevosita qo'l mehnatiga asoslangan biroq 1950 yilga kelib dastlabki paxta terish mashinlari ham dalada ishlay boshladi. Harbiylashgan sanoatni, qayta tinch qurulishga o'tkazish ham 50 yillarga kelib deyarli tugallangan edi. Dastlab, "Tashselmash", Krasniy dvigatel" kabi korxonalar tinch qurilish sanoati korxonalariга aylantirildi.

Dastlabki yillarda sug'orish inshootlari va sug'orish ishlari ham ancha og'ir ahvolga kelib qolgan edi. Bu ham bevosita urush tufayli sodir bo'lgan bo'lib, ilk yillarda markaz tomondan bir nechta gidro inshootlarni qurub yakunlash yoki yangilarini qurish ishlariga alohida e'tibor qaratildi. KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1956-yilgi «Paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRdagi Mirzacho'l qo'riq yerlarini sug'orish to'g'risida»gi, yangi qarorni qabul qildi. 1956-yili Mirzacho'lning o'zida sug'oriladigan maydon 205 ming ga yetdi. Amalga oshirilgan bu ishlarning barchasi paxta monokulturasida markazida jamlanganligi aholining ijtimoiy-iqtisodiy o'sishida katta to'siqlardan biri bo'ldi. 1949-yil yanvarida bo'lgan respublika komsomolining XII syezdi 20 ming komsomol a'zosini Mirzacho'lga doimiy ishlash va yashash uchun safarbar etishga qaror qildi. 1949-yil 15-martgacha Sirdaryo, Mirzacho'l, Bekobod, Bo'ka tumanlariga 14,5 ming kishi, shulardan 10,5 ming komsomol a'zosi doimiy ishlash uchun kelgan edi.

1946-1947-yillarda ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy xolat juda og'ir bo'lib, 1947-yilda yuz bergan quchoqchilik tufayli ocharchilik yanada kuchaydi. Lekin shunday og'ir vaziyatda ham Markazning boshqaruvida bo'lgan iqtisodiyot tuguni tufayli Sharqiy Yevropa mamlakatlariga jami xosilning 10 % eksport qilindi. Urushdan og'ir xolda chiqqan va barcha resurslarini g'alaba yo'lida sarf etib bo'lgan xalqlarning real iste'mol darajasi inobatga olinmadi.

Majburiy rejalар qattiq tartibli xo'jalik rejalashtirish tufayli qishloq aholisi mashaqqatlarga duchor qilindi. Xattoki Markazning zamonaviy tovlamachiligi uning paxta va xom ashyoga bo'lgan cheksiz ehtiyojlari tufayli aholining tomorqa yerlariga kirib kelishdek noinsoniy iqtisodiy rejalari ham paydo bolib bordi. 1950-yilning boshlarida aholi tomorqa yerlari 0,15 ga dan ,0,25 ga gach bo'lgan bo'lsa, yilning oxirida 0,12 ga dan , 0,15 ga gacha qisqartirildi. Aholidan tortib olingan yerlarga ham paxta ekildi. Bu esa aholining oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojini oshirishga ximzat qildi. Oziq-ovqatga bo'lgan etiyojlar endilikda import mahsulotiga ko'rinishida ta'minlanadigan bo'ldi. Bu borada ham Markaz tomondan qilingan siyosat paxta rejasi bajarilishiga bog'liq qilib qo'yildi.

Xulosa: 1945-1953 yillarda O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligini tinch qurulishga moslashtirish jarayoni katta ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan kechdi. Mehnat resurslari tanqisligi, texnika taqchilligi, iirigatsiya tizimining yaroqsiz holati, markazlashgan rejalashtirishning cheklovlari va oziq-ovqat ta'minotidagi uzulishlari bu sohaning tiklanishini sekinlashtirdi. Biroq, Shunga qaramasdan, O'zbekistob xalqi o'zining fidoyiligi va mehnatsevarligi bilan ushbu sinovli davrni yengib o'tdi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юсупов К. Аграрные отношения в Узбекистане в период строительства социализма. – Ташкент, 1977.
2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар.) Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. Масъул муҳаррирлар Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: O'zbekiston, 2017.
3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М. Жўраев, Р. Нуруллин, С. Камолов ва бошқалар. – Тошкент: Шарқ, 2000.
4. Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи. – Тошкент, 1980